**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.FM.01.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

SAYMANOV ISLAMBEK MIRZABAEVICH

EKOLOGIK MA’LUMOTLARNI QAYTA ISHLASH VA HIMOYA QILISHNING ALGORITMIK VA MANTIQIY USULLARI

05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi (fizika-matematika fanlari)

FIZIKA-MATEMATIKA FANLARNI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Toshkent – 2023

УДК: 004.056

Fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по физико-математическим наукам

Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on physical-mathematical sciences

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.FM.01.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

SAYMANOV ISLAMBEK MIRZABAEVICH

EKOLOGIK MA’LUMOTLARNI QAYTA ISHLASH VA HIMOYA QILISHNING ALGORITMIK VA MANTIQIY USULLARI

05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi (fizika-matematika fanlari)

FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Тошкент – 2023

Fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida №B2022.2.PhD/FM739 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (http://ik-fizmat.nuu.uz/) va «ZiyoNet» Axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Kabulov Anvar Vasilovich** texnika fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	**Abduraximov Baxtiyor Fayziyevich** fizika-matematika doktori, professor
	Saidov Abdusobirjon Abduraxmonovich texnika fanlari doktori, professor
Yetakchi tashkilot:	**Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston Milliy universiteti huzuridagi DSc.03/30.12.2019.FM.01.02 raqamli Ilmiy kengashning «___»_____2023 yil soat____ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100174, Toshkent sh., Olmazor tumani, Universitet ko‘chasi, 4-uy. Tel.: (+99871) 227-12-24, faks: (+99871) 246-53-21, 246-02-24, e-mail: nauka@nuu.uz).

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston Milliy universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (___ raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100174, Toshkent sh., Olmazor tumani, Universitet ko‘chasi, 4-uy. Tel.: (+99871) 246-02-24).

Dissertatsiya avtoreferati 2023 yil «____» _____kuni tarqatildi.
(2023 yil «____» _____ dagi _____ raqamli reestr bayonnomasi).

M.M. Aripov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, f.-m.f.d. professor

Z.R. Raxmonov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi, f.-m.f.d.

G.U. Jo‘rayev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, f.-m.f.d.

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon miqyosida turli sohalarda axborot texnologiyalaridan foydalanishga, ayniqsa, ulardan davlat boshqaruvi va o‘z-o‘zini boshqarish tizimida qo‘llash sohasida alohida e’tibor qaratilmoqda. Shunga ko‘ra, jismoniy va yuridik shaxslarga turli davlat interaktiv xizmatlarini ko‘rsatishda ma’lumotlarning maxfiyligini ta’minlash texnologiyalari va usullaridan foydalanish, iqtisodiy tizimlarni global miqyosda integratsiyalash imkoniyatlarini kengaytirish dolzarb muammo hisoblanadi. Xalqaro ma’lumotlar korporatsiyasi (IDC)ning yangi bashoratlariga ko‘ra, 2025 yilda 41,6 milliard IoT-qurilmalari yoki 79,4 zetabayt (Zb) ma’lumotlarni umumlashtiruvchi “buyumlar”ning ulanishi rejalashtirilgan. Ko‘plab mamlakatlarda, jumladan, AQSh, Yevropa, Osiyo va MDH davlatlari, shuningdek, arab mamlakatlari tomonidan axborotning kompleks himoyasini ta’minlash bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda.

Hozirgi kunda jahonda nashrlarning tahlili, raqamli texnologiyalarga kompleks yondashuvga asoslangan ekotizimlar misolida IoT axborot tizimlarini himoyalash modellari va usullarini ishlab chiqish zarurligini ko‘rsatmoqda. Ekotizimlarning axborot xavfsizligini boshqarish tizimining asosiy funktsiyalari ekotizim axborot xavfsizligining buzilishi bilan bog‘liq vaziyatning keskinlik darajasini baholash, axborot xavfsizligining buzilish xavfi darajasini baholash va ushbu vaziyatda harakatlar bo‘yicha qarorlarni qabul qilishni qo‘llab-quvvatlashdan iborat bo‘lishi lozim. Boshqacha qilib aytganda, asosiy muammo ko‘p hollarda axborot xavfsizligi tizimining holati, ehtimoliy tahdidlar, beqarorlashtiruvchi omillar to‘g‘risidagi to‘liq bo‘lmagan va noaniq dastlabki ma’lumotlarga bog‘liq.

Mamlakatimizda fundamental fanlarning ilmiy va amaliy tadbiqiga ega bo‘lgan kriptologiyaning dolzarb yo‘nalishlariga e’tibor ko‘chaytirildi. Jumladan, kriptografik akslantirishlar va algoritmlarni ishlab chiqish sohasida ma’lum yutuqlarga erishilib, axborotlarni uzatish va qayta ishlashning himoyalangan tizimlarini yaratishga alohida e’tibor qaratildi. “Amaliy matematika va matematik modellashtirish” fanlarining ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha xalqaro standartlar darajasida ilmiy tadqiqotlar olib borish asosiy vazifalar va faoliyat yo‘nalishlari etib belgilandi. “Funksional analiz, algebra, differensial tenglamalar, matematik fizika, matematik modellashtirish, hisoblash matematikasi va diskret matematika, ehtimollar nazariyasi va matematik statistika” ustuvor yo‘nalishlar bo‘yicha xalqaro standartlar darajasidagi ilmiy izlanishlar olib borish O‘zR FA V.I.Romanovskiy nomidagi Matematika instituti faoliyatining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Qaror ijrosini ta’minlashda steganografiya algoritmlarini amalga oshirish, algoritmlar va mantiqiy algebra funktsiyalari tizimlarining graf-sxemalari asosida timsollarni aniqlash va tanib olish uchun IoT tizimida ekologik ma'lumotlarini qayta ishlash va himoya qilishning algoritmik va mantiqiy usullarini ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947 “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantrish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni, 2017-yil 17-fevraldagi PQ-2789-son “Fanlar akademiyasi

faoliyati, ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi va 2018 yil 27 apreldagi PQ-3682 “Innovatsion g‘oyalar, texnologiyalar va loyihalarni amaliyotga joriy qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi” qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining IV. «Axborotlashtirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish» ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Kriptografiya, steganografiya, identifikatsiya va tasvirlarni tanib olish algoritmlarini amalga oshirish uchun ekotizimlar va ekologik ma’lumotlarini qayta ishlash va himoya qilishning algoritmik va mantiqiy usullari, shuningdek, maxfiy ekologik ma’lumotlarni himoya qilishni ta’minlash usullarining mantiqiy, matematik yechimlari misolida IoT axborot tizimlarining ishlashi va himoyasi modellari va usullarini yaratishning nazariy va amaliy vazifalari bo‘yicha ilmiy-tadqiqot ishlari va adabiyot manbalarining tahlili quyidagi olimlarning ishlarida ko‘rib chiqilgan: L. Zhou, M. Pavanil, S. Goel, R. Nagalakshmi, J. Ahamed, Bento A. Ganzaga, O.Y. Abdulhammed, R. Mohandas, Ю.И. Журавлев, О. Евсютин, А. Шелупанов, А. Тихомиров, В.В. Мельников, С.С. Корт, А.Г. Корченко, И.В. Котенко, М.В. Степашкин va boshqalar.

Ekotizimlarning axborot xavfsizligi nazariyasi va amaliyotini rivojlantirishga G. Fischer, И.И. Быстров, В.А. Герасименко, О.Ю. Гаценко, А.А. Грушо, В.С. Заборовский, П.Д. Зегжда, Д.П. Зегжда, В.А. Конявский, А.А. Малюк, А.А. Молдовян, Л.Г. Осовецкий, В.П. Шерстюк, А.Ю. Щербаков va boshqalar salmoqli hissa qo‘shishgan. So‘nggi bir necha yil ichida ushbu mualliflar tomonidan texnik va qonunchilik nuqtai nazaridan IoT ilovalari va qurilmalarining xavfsizligi va maxfiyligi masalalari bo‘yicha ko‘plab ishlar amalga oshirilgan.

O‘zbekistonda ko‘rib chiqilayotgan muammo axborot xavfsizligi va ma’lumotlar maxfiyligini ta’minlash algoritmlari va modellarini yaratishga katta hissa qo‘shgan yetakchi olimlar: T.F. Bekmuratov, M. Aripov, S. Ganiev, X.A. Muzaffarov, B.F. Abduraximov, R.J. Aloev, N.A. Ignatev va boshqalar rahbarligida yaratilgan ilmiy maktablar tomonidan ishlab chiqilmoqda.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti O’zbekiston Milliy universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalariga muvofiq FZ-201906117 “Orolbo‘yi qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishida ekologik vaziyatlar ta’sirini aniqlash monitoringini yuritishning dasturiy ta’minoti” (2020-2022), F-OT-2021-248 “Funtsional jadvallar asosida axborotlarni himoyalash uchun xavf-xatarlarni aniqlash, identifikatsiya va bartaraf qilishning intellektual usullari va texnologiyalarini ishlab chiqish” (2021-2022), AL-18245120 – “Orol mintaqasi misolida IoT qurilmalari tomonidan ishlab chiqarilgan ekologik ma’lumotlar

oqimlarini qayta ishlash va himoya qilishning intellektual usullari va texnologiyalari (2022-2023) loyihalari doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi algoritmik va mantiqiy algebraik funktsional tizimlarning graf-sxemalari asosida steganografiya, identifikatsiya va tanib olish algoritmlarini amalga oshirish uchun IoT tizimida atrof-muhit ma’lumotlarini qayta ishlash va himoyalashning algoritmik va mantiqiy usullarini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

IoT texnologiyalariga asoslangan ekotizimda axborotni himoya qilish ob’ektining tavsiflarini tadqiq etish, hamda sensor va boshqa qurilmalarda ma’lumotlarni saqlash va uzatishni xavfsiz amalga oshirish uchun IoT infratuzilmasini tahlil qilish;

ma’lumotlarni kiritish va foydalanuvchilardan foydalanishni nazorat qilish jarayonida sub’ektlar va ob’ektlarning optimal mosligini ta’minlash uchun funktsional jadvallari (FJ) asosida algoritmik modelni ishlab chiqish;

IoT texnologiyalari asosida ekotizimda tasvirlarni saqlash va uzatishni xavfsiz amalga oshirish uchun steganografik kodlash usullari va algoritmlarini ishlab chiqish;

baholashlarning hisoblash modelini chiziqli qisqa tutashuv (yopilish)dan to‘g‘ri (korrekt) modelga asoslangan holda bir-biriga mos kelmaydigan sinflar bilan tanib olish masalalarini yechishning algebraik usulini va to‘g‘ri (korrekt) algoritmni ishlab chiqish;

etalon jadvalini hamma joyda ham aniqlanmagan mantiqiy funktsiya sifatida ko‘rib chiqish va sinflarning butun fazoga kengayishini aniqlaydigan butun belgilar fazosida mantiqiy funktsiyaning optimal davomini qurish asosida ob‘ektlarni tanib olishning mantiqiy usulini ishlab chiqish;

mikrokontrollerlar va dasturlashtiriladigan mantiqiy kontrollerlarni loyihalash uchun CAD tizimiga asoslangan disyunktiv normal shakllar sinfida bul’ funktsiyalari asosida tasvirlarni xavfsiz saqlash va uzatish uchun steganografik kodlash va El Gamal assimetrik shifrlash algoritmlarini amalga oshirish;

ekologiyada IoT texnologiyalaridan foydalanish asosida Orolbo‘yi ekotizimida identifikatsiya qilish muammosini hal qilish uchun baholashlarning hisoblash modellarini joriy etish.

Tadqiqotning ob’ekti sifatida IoT qurilmalari tomonidan yaratilgan ekologik ma'lumotlarini boshqarish, aniqlash, qayta ishlash va himoya qilish uchun o‘rnatilgan tizimlaridan iborat.

Tadqiqotning predmeti algoritmik avtomatik modellar, steganografik algoritmlar va axborot xavfsizligi funksional jadvallari, mantiqiy jadvallar va steganografiya algoritmlarining funksiyalari.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot ishida tizimli tahlil, avtomatlar nazariyasi, optimal boshqaruv nazariyasi, algoritmik modellar va vositalar, axborot resurslarining maxfiyligini ta’minlash algoritmlari va usullari, boshqaruv monitorlarini qurish, imitatsion modellashtirish, Petri tarmoqlari, algebra va matematik mantiq, tasvirlarni aniqlash usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ma’lumotlarni kiritish va foydalanuvchi kirishini boshqarish jarayonida sub’ektlar va ob’ektlarning optimal mosligini ta’minlash uchun algoritmik model algoritmlashtirish tamoyillarini tadqiq qilish va funksional jadvallarni yaratish asosida ishlab chiqilgan;

mikrokontrollerlar va dasturlanadigan mantiqiy kontrollerlarni CAD loyihalashtirish tizimlari bazasida diz’yunktiv normal shakllar sinfida bul funksiyalari asosida steganografik kodlashning mantiqiy avtomat algoritmi tasvirlarni saqlash va uzatishni xavfsiz tashkil etish uchun ishlab chiqilgan;

mantiqiy funktsiyaning optimal davomini qurishga va to‘g‘ri modelga asoslangan o‘zaro kesishmaydigan sinflar bilan tanib olish masalalarini yechishning algebraik va mantiqiy usullari baholarni hisoblash algoritmlarini chiziqli tutashuv va butun alomatlar fazosi uchun ishlab chiqilgan;

IoT tizimida tasvirlarni identifikatsiya qilish, qayta ishlash va himoyalashning mantiqiy tanib olish algoritmining polinimial murakkabligi isbotlangan;

IoT tizimida ekologik ma’lumotlarini identifikatsiya qilish, qayta ishlash va himoyalashning algebraik tanib olish algoritmining korrektligi isbotlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

ekotizimning ob’ekti va sub’ekti o‘rtasidagi muvofiqlik jadvali asosida boshqaruv va xavfsizlik axborot tizimlari uchun IoT texnologiyalarini qo‘llash maqsadida ekotizimlarning dasturiy-texnik majmuasi ishlab chiqildi. Steganografiya algoritmlarining bul jadval graf-sxemalarini tashkil etuvchi mantiqiy formulalar ko’rinishidagi mantiqiy munosabatlar qurilgan;

ekologiyada Internet-narsalar texnologiyalaridan foydalanish asosida Orolbo‘yi ekotizimida identifikatsiya qilish muammosini hal qilish uchun baholarni hisoblash modeli taklif etilgan;

steganografiya va assimetrik shifrlash El Gamal algoritmlarning graf-sxemalari va dizyunktiv normal shakllar sinfidagi optimal bul’ funktsiyalari asosida amalga oshirilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi himoya jarayonining yagona va standart tavsifi asosida, murakkab tizimlarni algoritmlashning asosli usullari nazariyasi va amaliyoti, avtomat modellar, bul funktsiyalari, kriptoalgoritmlar va stegoalgoritmlarni taqdim etish uchun o‘rnatilgan mikroprotsessorli tizimlardan foydalangan holda axborotni kompleks himoya qilish muammolarini qat’iy shakllantirish bilan asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati agregat tizimlarni himoya qilish jarayonini tanib olish uchun algebraik va mantiqiy usullar bilan identifikatsiya algoritmlarini ishlab chiqish, avtomat modellar hamda xavfsizlikning faoliyat ko‘rsatishi va ta’minlanishida o‘rnatilgan IoT ekotizimini yaratish usullari bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarning amaliy ahamiyati IoT ekotizimlarini yaratish imkoniyati, axborot xavfsizligi va kriptografiya uchun kriptoalgoritmlarning graf-sxemalarini amalga oshiradigan bul funktsiyalarning diz’yunktiv normal shakllariga asoslangan kriptotizimlar va kriptoalgoritmlarni optimal taqdim etish bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Axborot tizimlarini boshqarishda interaktiv xizmatlar axborot resurslarining maxfiyligini ta’minlash maqsadida ishlab chiqilgan usullar va modellari asosida bir qator xo‘jalik sub’ektlarida joriy etilgan:

steganografiya algoritmining optimal matematik modelidan Uzb-Ind-2021-94 “CRN asosida IoT infratuzilmasidan foydalangan holda aqlli shahardagi energiya samaradorligi va ma’lumotlarning oqimi” loyihasida shifrlash algoritmlarini mikrokontrollerlarga yozishda mikrobuyruqlarning bul funksiya shakllarini tahlil qilish va yozishda qo’llanilgan (Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universitetining 2022 yil 25 maydagi №1596-15/01-son ma’lumotnomasi). Ilmiy natijalarni qo‘llash mikrokontrollerga steganografik algoritmini optimal yozish va tahlil qilish imkonini bergan;

suv va tuproqni interaktiv tahlil qilish usuli va vositalari, shuningdek, Orol dengizi bo‘yidagi qishloq xo‘jaligi sanoatida suv va tuproqni interaktiv tahlili natijalaridan atrof-muhit sharoitining ta’sirini aniqlash uchun monitoring dasturiy ta’minotini ishlab chiqishda qo’llanilgan (Qoraqalpog‘iston Respublikasi Suv xo‘jaligi vazirligining 2022 yil 6 maydagi №03/08-3-148-son ma’lumotnomasi). Ilmiy natijalarni qo‘llash texnologik jarayonda ishlab chiqarish samaradorligini 7-8% oshirish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 11 ta Ilmiy-amaliy anjumanlarda, jumladan 7 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Tadqiqot mavzusi bo‘yicha 26 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining falsafa doktori dissertatsiyalari asosiy Ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 11 ta maqola, jumladan 5 tasi xorijiy (5 ta scopus) va 6 tasi Respublika jurnallarida chop etilgan. Shuningdek, 4 ta EHM uchun yaratilgan dasturiy vositalarni qaydlash guvohnomalari olingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovadan tashkil topgan. Dissertatsiyaning hajmi 104 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi, tadqiqot maqsadi va vazifalari, tadqiqot ob’ekti va predmeti tavsiflanadi, tadqiqotning respublikada fan va texnologiyalarni rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga muvofiqligi ko‘rsatiladi. Izlanishning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari aniqlangan, olingan natijalarning ishonchliligi asoslangan, olingan natijalarning ilmiy-amaliy ahamiyati ko‘rsatilgan. Natijalar, ularni amaliyotga tatbiq etish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi to‘g‘risida ma’lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning “**Ekotizimlar misolida IoT axborot tizimlarining faoliyat ko‘rsatishi va himoyasi modellari va usullari**” deb nomlangan birinchi bobida IoT texnologiyalari asosida ekologik tizimdagi sensorlar, datchiklar va boshqalardan ma’lumotlarni xavfsiz saqlash va uzatish uchun “internet buyumlari” infratuzilmasining tahlili amalga oshirilgan. “Internet buyumlari” infratuzilmasining

himoyasini oshirish uchun IoT texnologiyalar asosida ekologik tizimdagi tasvirlarni saqlash va uzatishni xavfsiz tashkil etish uchun steganografik kodlash usullari va algoritmlari ishlab chiqilgan.

§1.1-paragrafda IoT texnologiyalari asosida ekologik tizimdagi ma'lumotlarni himoya qilish ob'ektining tavsifi keltirilgan.

§1.2-paragrafda "internet buyumlari" infratuzilmasining himoyasini oshirish maqsadida IoT texnologiyalar asosida ekologik tizimdagi tasvirlarni saqlash va uzatishni xavfsiz tashkil etish uchun steganografik kodlash usullari va algoritmlari ishlab chiqilgan.

Aytaylik I - muqova sirti $R*C$ piksel bilan tasvirlangan matritsa, S -bu x - qiymatli pikselga ega bo'lgan maxfiy xabar bo'lsin, unda I - matritsa (1) ko'rinishda, S - maxfiy xabar (2) ko'rinishda hamda L - xabar uzunligi esa (3) ifoda ko'rinishda tasvirlanadi:

$$I = \{x_{ij} \mid 1 \le i \le R, 1 \le j \le C, x_{ij} \in \{0,1,...,255\}\} \quad (1)$$

$$S = \{S_N \mid 1 \le N \le n, S_N \in \{0,1,...,255\}\} \quad (2)$$

$$L = \{255 * l_w + l_r \mid 0 \le l_w \le 255, 0 \le l_r \le 255\} \quad (3)$$

Aytaylik S - yashirin bo'lishi kerak bo'lgan xabar, E va D lar mos ravishda qo'yish va ekstraktlar (kiritish va chiqarish) algoritmlari, Y' - stego fayli bo'lsin. Qo'yish (kiritish) jarayoni $Y' = E(S, I, L)$ tenglama orqali berilishi mumkin.

Xabar muqova tasviridan quyidagi $X = D(Y', L)$ tenglama yordamida ajratiladi.

Steganografik algoritmning samaradorligi quyidagi ikkita parametr asosida tekshiriladi:

PSNR (signal/shovqin munosabatlar cho'qqisi) va MSE (o'rta kvadratik xatolik). Eng samarali kul rang tasvirni aniqlash usuli quyidagi ifoda orqali berilishi mumkin: $MSE = \frac{1}{R \times C} \sum_{i=1}^{R} \sum_{j=1}^{C} (x_{ij} - x'_{ij})^2$, $PSNR = 10\log[\frac{255^2}{MSE}]$, bu yerda R va C x_{ij} dastlabki ko'rinishda tasvirlangan matritsa o'lchovini, hamda x'_{ij} ko'rinishdagi yashirin tasvirini ifodalaydi.

§1.3-paragrafda, funktsional jadvallar (FJ) asosida ma'lumotlarni kiritish va foydalanuvchini kirishni boshqarish jarayonida sub'ektlar va ob'ektlarning optimal muvofiqligi ta'minlanadi. Algoritmik model quyidagi ko'rinishda ifodalaniladi: $T\Phi = \{S, O, Type, Q, H, L, n, A, B, \Theta, t, U, G, F, P\}$ - bu yerda avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimi (АСУ) samarali funktsional axborot tizimi (AT) bilan ta'minlangan, shuningdek FJ asosida AT ga kirish quyidagi parametrlar orqali boshqarilgan: S to'plam $S\{A_j\}$ sub'ektlar to'plami; O to'plam $O\{B_i\}$ ob'ektlar to'plami; A – ma'lum sub'ekt; B – ma'lum ob'ekt; X – ma'lum qoidalar; Θ – «A_i » va «B_i» orasidagi koordinatalar; t – vaqt; $Type$ – sub'ektlar turining to'plami; Q – quduqlar to'plami; H – quduq suvlarining chuqurlik qiymatlari to'plami (metrlarda); L – bir texnik tamonidan bosib o'tgan to'liq yo'li; n – bir texnikga biriktirilgan nazorat quduqlari soni; U – tashqi ta'sir ($\Theta_{ij}\{A_i, B_j\}$); F – o'tish jarayoni; G –graflarning o'tishi (Θ_{ij} dan $\Theta_{i+n, j+m}$ ga o'tish);

M – ruxsat berish (kirish) matritsasi; V – kirish imtiyozlari to‘plami; P – hisoblash va mantiqiy kiritish, chiqarish va boshqarish operatsiyalari.

Qism quduqlari quyidagi bir necha quduqlardan iborat:

$Q=\{\mathrm{Q}_1,\mathrm{Q}_2,\mathrm{Q}_3,\ldots,\mathrm{Q}_m\},\forall \mathrm{Q}_i,Q_j\in Q$ va $i\neq j, Q_i\cap Q_j=\varnothing$, $\|Q\|=m$

bu yerda Q_i qism quduqlarning elementlari bo‘lgan quduqlar va k_i – Q_i qism quduqlarining elementlari soni bo‘lib, quyidagi $Q_i=\{\mathrm{q}_1^i,\mathrm{q}_2^i,\ldots,\mathrm{q}_{k_i}^i\}$, $\forall \mathrm{q}_a,q_b\in Q_i$ ko‘rinishga ega, agar $a\neq b$ bo‘lgan holda $q_a=q_b$ bo‘ladi, $\|Q_i\|=k_i$ ga teng, shuning uchun quduqlarning umumiy soni quyidagi $\sum_{i=1}^{m}k_i=k_1+k_2+k_3+\ldots+k_m$ ko‘rinishda bo‘ladi, D_e – sho‘rlanishiga qarab taqsimlangan yer maydoni, $O=Q\bigcup D_e$, T – texniklar to‘plami ($T=\{\mathrm{T}_1,\mathrm{T}_2,\mathrm{T}_3,\ldots,\mathrm{T}_k\}$)

Quyidagi $F:T\to Q$ akslantirishni ko‘rib chiqamiz. Diskret vaqtdagi FJ ning o‘zgarishi quyidagi shartlarga ko‘ra dinamik holda amalga oshiriladi: agar t_i diskret vaqtda quduqlar soni $\|Q_i\|=n$ ga teng, t_{i+1} diskret vaqtda esa quduqlar soni $\|Q_i\|=n'$ ga teng bo‘lsa hamda agar quduqlar soni o‘z-aro teng bo‘lsa, ya’ni $n=n'$, u holda F_{t_i} FJ dan $F_{t_{i+1}}$ FJ holatiga o‘tiladi.

Dissertatsiyaning “**Tahdidlarni aniqlash va identifikatsiya qilish uchun tanib olish usullari va algoritmlari**” deb nomlangan ikkinchi bobida chekli sonli kesishuvchi sinflar bilan tanib olish masalalarini yechishning algebraik usullari takomillashtirilgan. Har bir Z tanib olish topshirig‘i uchun evristik algoritmlar oilasi bo‘yicha algebra atamalarida to‘g‘ri algoritm, ya’ni har bir sinf bo‘yicha ob’ektlarning cheklangan tanlovini namunasini to‘g‘ri tasniflaydigan algoritm qurilgan.

Yuqorida keltirilgan ishlarda qurilgan, kesishuvchan sinflar bilan bog‘liq topshiriqlar ko‘rib chiqilganligi sababli algoritm yetarli darajada murakkab hisoblanadi. Algoritm tavsifining o‘zi katta xotiradan foydalanishni talab etadi/xotira hajmi proportsional ortadi $q^2\cdot l^2$ – bu yerda q ushbu topshiriqdagi tanib olish ob’ektlari soni, l - sinflar soni. Ma’lum bo‘lishicha, agar faqatgina kesishmaydigan sinflar bilan bog‘liq topshiriqlar ko‘rib chiqilsa, an’anaviy algebraik usullar bilan tavsifiga ko‘ra soddaroq va sezilarli darajada samarali hisoblash algoritmini hosil qilish mumkin.

§2.1-paragrafda kesishmaydigan sinflar bilan tanib olish masalalarini yechish uchun algebraik usullar ko‘rib chiqilgan. Baholarni hisoblash modelining chiziqli tamomlashdan iborat to‘g‘ri modellar taklif etilgan.

§2.2-paragrafda baholarni hisoblash va to‘g‘ri algoritm modelining chiziqli tamomlanishini qurish keltirilgan.

§2.3-paragrafda ob’ektlarni tanib olishning mantiqiy usuli taklif etilgan. Usul sinflarni butun makon bo‘ylab kengayishini belgilovchi, hamma joyda aniqlanmagan mantiqiy funktsiya va xususiyatlarning butun makonida mantiqiy funktsiyaning optimal davomini qurish sifatida mos jadvalni ko‘rib chiqishdan iborat.

Biz bir-biriga mos kelmaydigan $K_1,\ldots,K_l$ sinflari bilan bog‘liq masalani ko‘rib chiqamiz va $J_0\left(K_1,K_2,\ldots,K_l\right)$ ma'lumotlari T_{nml} o‘quv jadvali shaklida berilgan deb hisoblaymiz.

Maqsad, ko‘rib chiqilayotgan baholashlarni hisoblash modelining asosiy operatorlari to‘plamini ajratib ko'rsatish, ularning chiziqli yopilishini qurish va $\breve{S}_q$ tanlanmasidagi har bir $\tilde{K}_j$ sinf ob’ekti uchun ushbu operatorlar yetarlicha katta Γ_j bahosini va $u \neq j$ da etarlicha kichik Γ_u baholarini shakllantirishni isbotlashdan iborat.

Barcha asosiy operatorlar, shuningdek, chiziqli tutashuv operatorlari oshkor ko‘rinishda quriladi.

Aytaylik o‘rganiladigan ma’lumotlar T_{nml} - o’quv jadval shaklida berilgan bo’lsin.

Jadval satrlari $S_1,\ldots,S_m,\ S_i=\left(a_{i1},\ldots,a_{in}\right),\ i=\overline{1,n}$ ob’ektlarining standart tavsiflari bo’ladi.

$S_{m_{j-1}+1},\ldots,S_{m_j},\ m_0=0,\ m_l=m$ ob’ektlar o‘zaro kesishmaydigan $K_j,\ j=\overline{1,l}$ sinfiga tegishli bo‘lsin deb hisoblaymiz.

Agar S satr $K_j,\ j=1,2,\ldots,l$ sinfga tegishli bo‘lsa, unda l - o‘lchovli $P\left(S\right)=j$ predikat kiritamiz, u holda masala P predikat qiymatining $S^1,S^2,\ldots,S^q$ chekli ob’ektlar to‘plami uchun hisobdagi masala uchun o‘rganiladigan ma’lumotlaridan tuzilgan.

$S^1,S^2,\ldots,S^q,\ S^i=\left(b_{i1},\ldots,b_{in}\right),\ j=\overline{1,l},\ \ i=\overline{1,q}$ ob’ektlar yakuniy tanlanmani hosil qiladi, bu erda $S^{q_{j-1}+1},\ldots,S^{q_j}$, $q_0=0,\ q_l=q$ ob’ektlar faqat K_j sinfiga tegishli bo‘ladi.

Quyidagi $\left\{S_1,\ldots,S_m\right\}\cap K_j=K,\ \left\{S_1,\ldots,S_m\right\}\setminus\tilde{K}_j=C\tilde{K}_j,$

$$S^1,\ldots,S^q\cap K_j=K_j^1,\ \left\{S^1,\ldots,S^q\right\}\setminus K_j^1=CK_j^1$$

belgilashlar orqali $B_j,\ j=\overline{1,l}.$ operatorlarni shakllantirish mumkin.

Aytaylik A algoritm l – sinfli Z tanib olish masalani o‘tkazuvchi ixtiyoriy algoritmi, $Z=\left\{J,S^q\right\}$ - esa $\left\|\beta_{ij}\right\|_{q\times l}$ matritsaning natijasi va $A\left(J,S^q\right)=\left\|\beta_{ij}\right\|_{q\times l},\ \beta_{ij}\in\{0,1,\Delta\}$ bo‘lsin. Quyidagi $\beta_{ij}=1,\ \beta_{ij}=0,\ \beta_{ij}=\Delta$ tengliklar esa A algoritm S^i ob’ektlarni K_j sinflarga tegishlilik hisobini inkor etib, mos ravishda $S^i:\ S^i\in K_j,\ S^i\notin K_j$ ob’ekt uchun hisoblaydi.

Bunday algoritmlar Z masala uchun korrekt emas va ixtiyoriy korrekt bo‘lmagan algoritm korrekt dep ataladi.

Teorema 1. Har bir A - algoritmni $A = B \times C$ ko‘rinishda ifodalash mumkin ($\times$ - ko’paytma ketma-ket bajarilishni anglatadi), bu yerda, agar $A(Z) = \|\beta_{ij}\|_{q\times l}$, $\beta_{ij} \in \{0,1,\Delta\}$ bo‘lsa, u holda $B(Z) = \|\alpha_{ij}\|$, $C\left(\|\alpha_{ij}\|_{q\times l}\right) = \|\beta_{ij}\|_{q\times l}$ bo‘ladi.

Teorema 1 har bir A algoritmni ikkita ketma-ket bosqichlarga bo‘lish mumkinligini ko‘rsatadi. 1 - bosqichda Z masala (q,l) - o‘lchamli sonli matritsaga o‘tkaziladi, bu yerda q - matritsa satri bo‘lib ob’ektlarni tanib olishlar soniga teng, l - esa matritsa ustuni bo‘lib sinflar soniga teng.

2 - bosqichda esa sonli matritsaga asosan $S^i,\ldots,S^q$ ob’ektlarning $K_1,\ldots,K_l$ sinflarga mansubligi haqidagi savollarga javoblar shakllantiriladi.

α_{ij} - qiymat tabiiy ravishda $S^i, i = \overline{1,q}$ ob’ektlarning K_j, $j = \overline{1,l}$ sinflarga tegishlilik o’lchovlarining qiymatlari sifatida talqin qilinadi. B - bosqich tanib oluvchi operator, C - esa hal qiluvchi qoida deb ataladi.

Keyinchalik, faqat chegaraviy hal qiluvchi $C^*\left(\|\alpha_{ij}\|_{q\times l}\right) = \|C(a_{ij})\|_{q\times l}$ qoidalar ko’rib chiqiladi.

Qoida elementma-element qo’llaniladi. a - son, shuningdek d_1, d_2 - chegaraviy sonlar va $0 < d_1 < d_2$ bo‘lsin, u holda

$$C^*(a) = \begin{cases} 1, & agar\ \ a > d_2 \\ 0, & agar\ \ a < d_1 \\ \Delta, & agar\ \ d_1 < a < d_2 \end{cases}$$

Operatorlarni tanib oluvchi algebra. Aytaylik $Z = \left(J, \tilde{S}^2\right)$ - l ta sinfli $K_1,\ldots,K_l$ fiksirlangan tanib olish masalasi bo‘lsin, shuningdek $B_i, i = 1,2$ ovozlar matritsasiga ega $B_i(Z) = \|\Gamma^i_{uv}\|_{q\times l}$ ko‘rinishdagi operatorlarni tanib olish bo‘lsin.

So‘ngra

$$(B_1 + B_2)(Z) = \|\Gamma^1_{uv} + \Gamma^2_{uv}\|_{q\times l},$$

$$(B_1 \times B_2)(Z) = \|\Gamma^1_{uv} \times \Gamma^2_{uv}\|_{q\times l},\ (cB)(Z) = \|c\cdot\Gamma\|_{q\times l} \quad i = 1,2$$

operatorlar ustida yig‘indi, ko‘paytirish va songa ko‘paytirishning algebraik amallari kiritiladi.

$\{B\}$ da kiritilgan amallarga nisbatan (B) - algebraik yopilmalar oilasi quyidagi

$$\sum b_{i_1},\ldots,b_{i_k},\ B_{i_1}\cdot B_{i_2}\cdot\ldots\cdot B_{i_k}$$

ko‘rinishdagi operatorli polinomlar sifatida ifodalash mumkin.

Dissertatsiyada $L\{A\}$ chiziqli kengaytmali $L\{B\}\cdot C(d_1,d_2)$ algoritmlar oilasini ko’rib chiqamiz.

Ta'rif 1. $(S^u, j), S^u \in \tilde{S}^q, S^u \in K_j, 1 \le j \le l$ juftlik B operatorda belgilangan dep ataladi, agar barcha $S^r \in \tilde{S}^q$, $S^r \notin K_w$, $w = 1,2,\ldots,l$ satrlar uchun $B_v(Z) = \|a_{tv}\|_{q \times l}$, $a_{uj} \ge 1$, $0 < |a_{rw}| < \delta < 1$ o'rinli bo'lsa.

Teorema 2. Aytaylik biror modellarda $B_1,\ldots,B_w$ operatorlar berilgan bo'lsinki, har bir $\left(S^u, j\right), \breve{S}^u \in K_j$ juftlik kamida bitta B_i, $i = \overline{1, w}$ operator bilan belgilanadi. Shunday $\sum_{i=1}^{n} \alpha_i B_i = \tilde{B} \in \tilde{L}\{\mathrm{B}\}$ chiziqli kombinatsiya topiladiki, $\tilde{A} = \breve{B} \times C$ (bu erda C - chegaraviy hal qiluvchi qoida) algoritm Z masala uchun korrekt (to'g'ri) algoritm bo'ladi.

Teorema 3. Aytaylik $B \in B(j)$ - ixtiyoriy operator va $S = (\alpha_1,\ldots,\alpha_n)$ - ixtiyoriy mumkin bo'lgan ob'ekt bo'lsin. Shuningdek

$$B(\mathrm{S}) = \left(\Gamma_1^j(S),\ldots,\Gamma_j^j(S),\ldots,\Gamma_l^j(S)\right)$$

ifoda quyidagi

$$0 \le \Gamma_t^j(S) < m \cdot n \cdot \varepsilon,\ t = 1,2,\ldots,\ j-1,\ j+1,\ldots,l$$

tengsizlikka ega bo'lsin.

Endi quyidagi (u,v) juflikni ko'rib chiqamiz, bu yerda $1 \le v \le n$, boshqacha qilib aytganda sinflarga tegishli ob'ektlar satrlari $S_u \in \tilde{K}_j$ ni ko'rib chiqamiz.

Bu (u,v) juftlik o'qitish jadvalining a_{uv} elementiga mos keladi.

Quyidagi $\rho_v(a_{uv}, b_{tv})$, $t = \overline{1,q}$ qiymatni, ya'ni S_u ob'ektdagi v - alomatlar masofasini, T_{nml} o'qitish jadvalida S^t ning S^q dagi ushbu alomat qiymatigacha bo'lgan masofasini ko'rib chiqamiz.

$\tilde{S}^q$ dagi ob'ektlarni tartiblaymiz, bu erda $\tilde{S}^q = \left\{S^1,\ldots,S^q\right\}$ satr $p_v(a_{uv}, b_{uv})$, $t = \overline{1,q}$ qiymatlarning o'sishi bo'yicha, ob'ektlar esa ixtiyoriy tarzda o'zaro element miqdori bilan tenglashtirilgan.

Quyidagi tariblangan satrlarni olamiz:

$$S^{r_1}, S^{r_2},\ldots,S^{r_i},\ldots,S^{r_q}\ 0 \le \rho_v\left(a_{uv}, b_{r_1 v}\right) \le \rho\left(a_{uv}, b_{r_2 v}\right) \le \ldots \le \rho_v\left(a_{uv}, b_{r_i v}\right) \le \rho\left(a_{uv}, b_{r_q v}\right).$$

Agar ob'ektlar K_j sinfga tegishli bo'lsa «+» belgisini, aks holda esa «-» belgisi bilan almashtirib yozib chiqamiz.

Natijada, masalan quyidagi ko'rinishdagi ketma-ketliklarni hosil qilamiz:

$$S^{+r_1}, S^{+r_2}, S^{-r_3}, S^{-r_4}, S^{+r_5},\ldots,\ \text{va h.k.}$$

Ta'rif 2. (u,v) juftlik statsionar deb ataladi, agar qurilgan «+, -» belgilar ketma ketligida bir o'zgaruvchi belgiga teng va elementlarda belgining $S^{r_i}, S^{r_{i+1}}$ o'zgarishi sodir bo'lib, $p_v\left(a_v, b_{r_i, v}\right) < p_v\left(a_{uv}, b_{r_{i+1}, v}\right)$ bajarilsa.

Teorema 4. Agar Z masalada har bir $j=\overline{1,l}$ raqam uchun statsionar juftlik mavjud bo‘lsa, u holda $A=\left(\left(C_1+C_2\right)\sum_{i=1}^{l}B^i\right)\cdot\left(C\left(C_1,C_2\right)\right)$ algoritm Z masala uchun korrekt (to‘g‘ri) bo‘ladi.

Optimal korrektorni tanib olish va qurishning mantiqiy usuli. Korrektorni qurishda quyidagicha mantiqiy usul shakllantiriladi – K_1,K_2 sinflari bilan kesishmaydigan ob’ektlarni tasniflovchi K - qiymatli mantiqning hamma yerda ham belgilanmagan optimal davomi.

Agar o‘qituvchi ma’lumot jadval $T_{n,m}^2$ ko‘rinishida taqdim etilgan bo‘lsa, barcha $\left(\tilde{\alpha},\tilde{\beta}\right)$ juftliklarga mos $\tilde{\gamma}$ to‘plamli $\tilde{T}$ jadval ko‘rib chiqiladi, bu yerda $\gamma_i=\begin{cases}1,\text{agar }\alpha_i\neq\beta_i\\0,\text{agar }\alpha_i=\beta_i\end{cases}$ ga teng bo‘lgan $\tilde{\alpha}\in K_1,\tilde{\beta}\in K_2$.

Ko‘rinib turibdiki, T intervallarini birlashtirish to‘plamlaridagi j qiymatni qabul qiluvchi va $F(\tilde{x})$ funktsiyaning davomi hisoblangan $a_{i_1}=b_{i_1},a_{i_2}=b_{i_2},\ldots,a_{i_k}=b_{i_k}$ ga ega $T_{n,m}^2$ jadvalning K_i sinfidan $\left(b_1,b_2,\ldots,b_n\right)$ topiladigan $\left(a_1,a_2,\ldots,a_n\right)$ to‘plamlarda i qiymatli qabul qiluvchi F^1 funktsiyasi.

Shu tarzda $F\left(x_1,x_2,\ldots,x_n\right)$ funktsiyasining optimal mantiqiy davomini quyidagicha shakllantirish mumkin.

1. T jadvalini shakllantirish.
2. “мин-max” (minimal normalarga ega ustunlar va maksimal birliklar soniga ega satrlarni tanlash) usuli yordamida qaytarilmas $\Pi_1,\ldots,\Pi_l$ satrli T ustunlar quriladi.
3. Har bir $\Pi_t,t=1,2,\ldots,l$ uchun F funktsiyasining ikkita F_t',F_t'' davomi quriladi:
4. Keltirilgan ob’ektlarning nazorat jadvali bo‘yicha F funktsiyasining har bir davomi uchun qoplash foizi aniqlanadi. Nazorat jadvalidagi ob’ektlarni qoplashning maksimal foizi bilan davom etish tanlanadi.

Algoritmning murakabligi elementar qadamlarning soni bilan ifodalanadi. Ko‘rinib turibdiki, $\tilde{T}$ shakllantirish uchun nm_1m_2 elementar qadamlar talab etiladi, bu yerda m_1 - K_1 dagi ob’ektlar soni, m_2 esa K_2 sinfidagi ob’ektlar soni. “min-max” usuli yordamida T satrlarning ustunlar bilan qaytarilmas qoplanishi quriladi. Buning uchun $m_1m_2n\left(m_1m_2+2\right)$ qadamlar zarur.

Keyingi bosqichda m_2 satrli va $2]\log m_1m_2\left(+\right)\log n[+4$ ustundan tashkil topgan jadval shakllantiriladi. Buning uchun $\left(2]\log m_1m_2\left(+\right)\log n[+4\right)m_1m_2$ qadam talab etiladi. Ko‘rish mumkinki, “min-max” algoritmi uchun $m_1m_2\left(m_2+2\right)\left(2]\log m_1m_2\left(+\right)\log n[+4\right)$ qadam mavjud. Shunga ko‘ra, algoritmning murakkabligi quyidagiga teng:

$$m_1 m_2 \left\{ n\left(m_1 m_2 + 3\right) + \left(m_2 + 3\right)\left(2\right]\log m_1 m_2 \left(+\right)\log n[+4\right)\right\}$$

Dissertatsiyaning “**Ekotizimlar misolida IoT axborot tizimining faoliyat ko‘rsatishi va himoyasi modellari va usullarini dasturiy tashkil etish**” deb nomlangan uchinchi bobida ekotizimda steganografik kodlash va identifikatsiya algoritmlarini tashkil etish taklif etilgan.

§3.1-paragrafda mikrokontrollerlar va dasturlanadigan mantiqiy kontrollerlarni CAD tizimlari bazasida diz’yunktiv normal shakllar sinfida bul funksiyalari asosida tasvirlarni saqlash va uzatishni xavfsiz tashkil etish uchun steganografik kodlash algoritmlarini mantiqiy avtomat tarzda tashkil etish taklif etilgan.

LSB usulining kodlash algoritmi algebraik ko‘rinishga quyidagicha o‘tkaziladi:

$Y_0 = 1;\quad Y_1 = 1;\quad Y_2 = X_1 X_2;\quad Y_3 = \overline{X_1};\quad Y_4 = \overline{X_1};\quad Y_5 = \overline{X_1} X_3;\quad Y_6 = \overline{X_1}\,\overline{X_3};$

$Y_7 = \overline{X_1}\,\overline{X_3} X_4 X_5;\quad Y_8 = \overline{X_1}\,\overline{X_3}\,\overline{X_4};\quad Y_9 = \overline{X_1}\,\overline{X_3}\,\overline{X_4} X_6 X_7;\quad Y_{10} = \overline{X_1}\,\overline{X_3}\,\overline{X_4} X_6 \overline{X_7} X_8;$

$Y_{11} = \overline{X_1}\,\overline{X_3}\,\overline{X_4} X_6 \overline{X_7}\,\overline{X_8};\quad Y_{12} = \overline{X_1}\,\overline{X_3}\,\overline{X_4}\,\overline{X_6};\quad Y_{13} = \overline{X_1}\,\overline{X_3}\,\overline{X_4}\,\overline{X_6} X_9;$

$Y_{14} = \overline{X_1}\,\overline{X_3}\,\overline{X_4}\,\overline{X_6}\,\overline{X_9};\ Y_k = \overline{X_1}\,\overline{X_3}\,\overline{X_4} X_5 \overline{X_6} \vee; \overline{X_1}\,\overline{X_3} X_4 \overline{X_5}$

LSB usulining kodlashining GSA ga mos mikrokomandalarning matritsa ko‘rinishidagi sxemasi:

$Y_0 = Y_1;$

$Y_1 = X_1 X_2 Y_2 \vee \overline{X_1} Y_3;$

$Y_2 = X_1 X_2 Y_2 \vee \overline{X_1} Y_3;$

$Y_3 = Y_4;\quad Y_5 = Y_4;$

$Y_4 = X_3 Y_5 \vee \overline{X_3} Y_6;$

$Y_6 = X_4 X_5 Y_7 \vee \overline{X_4} Y_8;$

$Y_7 = X_5 Y_7;$

$Y_8 = X_6 X_7 Y_9 \vee X_6 \overline{X_7} X_8 Y_{10} \vee X_6 \overline{X_7}\,\overline{X_8} Y_{11} \vee \overline{X_6} Y_{12};$

$Y_9 = X_6 X_7 Y_9 \vee X_6 \overline{X_7} X_8 Y_{10} \vee X_6 \overline{X_7}\,\overline{X_8} Y_{11} \vee \overline{X_6} Y_{12};$

$Y_{10} = X_6 X_7 Y_9 \vee X_6 \overline{X_7} X_8 Y_{10} \vee X_6 \overline{X_7}\,\overline{X_8} Y_{11} \vee \overline{X_6} Y_{12};$

$Y_{11} = X_6 X_7 Y_9 \vee X_6 \overline{X_7} X_8 Y_{10} \vee X_6 \overline{X_7}\,\overline{X_8} Y_{11} \vee \overline{X_6} Y_{12};$

$Y_{12} = X_9 Y_{13} \vee \overline{X_9} Y_{13};$

$Y_{13} = X_9 Y_{13} \vee \overline{X_9} Y_{13};$

$Y_{14} = Y_k;$

El Gamal assimetrik shifrlash algoritmining algebraik shakliga o'tkazish quyidagicha amalga oshiriladi:

$Y_0 = Y_1 = 1 \qquad Y_2 = x_1 \qquad Y_3 = x_2$

$Y_4 = x_1 x_3 \qquad Y_5 = \overline{x}_1 \overline{x}_3 \overline{x}_4 \qquad Y_6 = \overline{x}_1 \overline{x}_3 \overline{x}_4 \overline{x}_5$

$Y_7 = \overline{x}_1 \overline{x}_3 \overline{x}_4 \overline{x}_5 \qquad Y_8 = \overline{x}_1 \overline{x}_3 \overline{x}_4 \overline{x}_5 \overline{x}_6 \qquad Y_K = \overline{x}_1 \overline{x}_3 \overline{x}_4 \overline{x}_5 \overline{x}_6$

El Gamal assimetrik shifrlash algoritmining GSA ga mos keladigan mikrokomanda matritsa sxemasi quyidagicha yaratilgan:

$Y_0 = Y_1 \qquad Y_1 = \overline{x_1} x_3 Y_1 \vee x_1 Y_2 \vee \overline{x_1}\,\overline{x_3} Y_4 \qquad Y_2 = Y_1$

$Y_3 = Y_2 \qquad Y_4 = x_4 Y_4 \vee \overline{x_4} Y_5 \qquad Y_5 = x_5 Y_4 \vee \overline{x_5} Y_6$

$Y_6 = Y_7 \qquad Y_7 = x_6 Y_7 \vee \overline{x_6} Y_8 \qquad Y_8 = Y_k$

§3.2-paragrafda IoT texnologiyalari asosida Orol mintaqasi ekotizimida identifikatsiya qilish muammolarini yechish uchun baholarni hisoblashga asoslangan modelni tashkil etish keltirilgan. Ushbu paragrafda faqatgina $A = B \times C$ ko‘rinishda taqdim etilgan algoritmlar ko‘rib chiqilgan, bu yerda B - algoritmning salmoqli qismi hisoblangan ixtiyoriy aniqlovchi operator; hal etuvchi operator – C

– barcha uchun standart hisoblangan algoritm va dasturlardan tashkil topgan bo‘lishi mumkin.

Har qanday ovoz berishni aniqlovchi operator Z topshirig‘ini ovozlarni raqamli matritsasida yoki $B(Z)=\|\Gamma_{ij}\|_{q\times l}$, $\Gamma_{ij}=\Gamma_j(S^i)$ baholarida aks ettiradi.

Agar $\left(\tilde{\alpha}-\tilde{\beta}\right)=\sum_{i=1}^{6}\sum_{j=1}^{10}|\alpha_i-\beta_i|\to\min$. α_i - datchik ma’lumotlari, β_j - sho‘rlanganlik sinfi parametrlari. Datchik ma’lumotlari: HCO_3 (gidrokarbonat), Cl (xlor), SO_4 (sulfat kislota), Ca (kaltsiy), Mg (magniy), Na (natriy). Sho‘rlanish 5 ta sinfga ajratiladi (sho‘rlanmagan, kam sho‘rlangan, o‘rtacha sho‘rlangan, yuqori sho‘rlangan, juda yuqori sho‘rlangan) va har bir sinf 10 ta banddan iborat.

Agar datchikdan α_i ma’lumotlari kelsa va u $a_i-b_i\to\min$ qiymatini tekshirganda berilgan shart bajarilsa va qaysi sho‘rlanish sinfiga mansubligini ko‘rsatib beradi. Agar qiymat $a_i-b_i\to\min$ teng bo‘lsa, ya’ni bir nechta sho‘rlanish sinfiga mos bo‘lsa, u holda ma’lumot ushlab qolingan hisoblanadi.

Baholarni hisoblash algoritmi asosida elektron resurslarda axborot xavfsizligi tahdidlarining taqqoslama tasnifi muammolarini yechish uchun to‘g‘ri algoritmdan foydalanilgan:

$$A=\left(\sum_{i=1}^{e}\sum_{S^t\in K_j}B(S^t)C(C_1,C_2)\right)$$

§ 3.3-paragrafda internet buyumlari texnologiyalarini ekologiyada (Orol bo‘yi misolida) tizim sifatida qo‘llash taklif etilgan. Tizim veb-sayt ko‘rinishida ishlab chiqilgan. Tizimning server qismini ishlab chiqishda Django freymvorki, GUI uchun Quasar freymvorki yordamida bir tomonlama ilova (SPA) sifatida mijoz qismi Vue js qo‘llanilgan. Tizimni ishga tushirish uchun zamonaviy brauzerlardan birida quyidagi saytni ecoaral.uz ochish zarur. Shundan so‘ng brauzer sahifasida tizimning bosh oynasi aks etadi.

XULOSA

IoT texnologiyalari asosida ekologik tizimdagi axborotni himoya qilish ob’ekti tavsifi va ekologik tizimda IoT texnologiyalari asosida sensorlar, datchiklar va h.k.lardan ma’lumotlarni uzatish va saqlashni xavfsiz tashkil etish uchun “internet buyumlari” infratuzilmasi tahlil qilindi;

internet buyumlari infratuzilmasining himoyasini oshirish shuningdek, IoT texnologiyalari asosida ekologik tizimdagi tasvirlarni saqlash va uzatishni xavfsiz tashkil etish uchun steganografik kodlash usullari va algoritmlarini ishlab chiqildi;

baholarni hisoblash va to‘g‘ri algoritm modelini chiziqli tamomlovchi to‘g‘ri model asosida kesishmaydigan sinflar bilan tanib olish muammolarini hal qilish uchun algebraik usul ishlab chiqildi;

mos jadvallarni ko‘rib chiqish asosida ob’ektlarni tanib olishning mantiqiy usulini sinflarni butun makon bo‘ylab kengayishini belgilovchi, hamma joyda aniqlanmagan mantiqiy funksiya va xususiyatlarning butun makonida mantiqiy funksiyaning optimal davomini qurish va har doim ham aniq bo‘lmagan mantiqiy funksiyasi ishlab chiqildi;

mikrokontrollerlar va dasturlanadigan mantiqiy kontrollerlarni CAD loyihalashtirish tizimlari bazasida diz’yunktiv normal shakllar sinfida bul funksiyalari asosida tasvirlarni saqlash va uzatishni xavfsiz tashkil etish uchun steganografik kodlash algoritmlarini mantiqiy avtomat tarzda tashkil etish amalga oshirildi;

internet buyumlari texnologiyasini ekologiyada qo‘llash asosida Orol mintaqasi ekotizimida identifikatsiya masalalarini hal etish uchun baholashni hisoblashga asoslangan modelni amalga oshirish taklif etildi.

НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.03/30.12.2019.FM.01.02
ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЁНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ
НАЦИОНАЛЬНОМ УНИВЕРСИТЕТЕ УЗБЕКИСТАНА

НАЦИОНАЛЬНЫЙ УНИВЕРСИТЕТ УЗБЕКИСТАНА

САЙМАНОВ ИСЛАМБЕК МИРЗАБАЕВИЧ

АЛГОРИТМИЧЕСКИЕ И ЛОГИЧЕСКИЕ МЕТОДЫ ОБРАБОТКИ И ЗАЩИТЫ ЭКОЛОГИЧЕСКИХ ДАННЫХ

05.01.05 – Методы и системы защиты информации. Информационная безопасность

АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD)
ПО ФИЗИКО-МАТЕМАТИЧЕСКИМ НАУКАМ

Ташкент-2023

Тема диссертации доктора философии (PhD) по физико-математическим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Кабинете Министров Республики Узбекистан за № B2022.2.PhD/FM739.

Диссертация выполнена в Национальном Университете Узбекистана имени Мирзо Улугбека.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета (http://ik-fizmat.nuu.uz) и на Информационно-образовательном портале «Ziyonet» (www.ziyonet.uz).

Научный руководитель:	**Кабулов Анвар Василович** доктор техническим наук, профессор
Официальные оппоненты:	**Абдурахимов Бахтиёр Файзиевич** доктор физико-математических наук, профессор
	Саидов Абдусобиржон Абдурахмонович доктор техническим наук, профессор
Ведущая организация:	**Каракалпакский государственный университет имени Бердаха**

Защита диссертации состоится «____» _____2023 года в ____ часов на заседании Научного совета DSc.03/30.12.2019.FM.01.02 при Национальном университете Узбекистана (Адрес: 100174, г. Ташкент, Алмазарский район, ул. Университетская, 4. Тел.: (+99871) 227-12-24, факс: (+99871) 246-53-21, e-mail: nauka@nuu.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Национального университета Узбекистана (зарегистрирована за №____). (Адрес: 100174, г. Ташкент, Алмазарский район, ул. Университетская, 4. Тел.: (+99871) 246-02-24).

Автореферат диссертации разослан «____» _____2023 года.
(протокол рассылки №_____ от «____» _____2023 года).

М.М.Арипов
Председатель Научного совета по присуждению ученых степеней, д.ф.-м.н., профессор

З.Р.Рахмонов
Ученый секретарь Научного совета по присуждению ученых степеней, д.ф.-м.н.

Г.У.Жураев
Председатель Научного семинара при научном совете по присуждению ученых степеней, д.ф.-м.н.

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В мире особое внимание уделяется к использованию в различных отраслях информационных технологий, в особенности в сфере применения их в государственном управлении и системе самоуправления, актуальной проблемой является применение технологий и методов обеспечения конфиденциальности информации при предоставлении физическим и юридическим лицам различных государственных интерактивных услуг, расширение возможностей интеграции хозяйственных систем в мировом масштабе. Согласно новому прогнозу Международной корпорации данных (IDC), в 2025 году будет подключено 41,6 миллиарда подключенных IoT-устройств или «вещей», генерирующих 79,4 зетабайта (ZB) данных. Многими странами мира, в том числе США, Европы, Азии и СНГ, а также арабских стран проводятся научные исследования по обеспечению комплексной защиты информации.

В настоящее время проведённый анализ публикаций последних лет свидетельствует о необходимости разработки моделей и методов защиты информационных систем IoT на примере экосистем основанных на комплексном подходе по цифровым технологиям. Основные функции системы управления информационной безопасностью экосистем должны состоять в оценке степени критичности ситуации, связанной с нарушением информационной безопасности экосистемы, оценке уровня риска нарушения информационной безопасности и в поддержке принятия решения относительно действий в данной ситуации. Другими словами, основная проблема заключается в зачастую неполных и неопределенных исходных данных о состоянии системы защиты информации, возможных угрозах, дестабилизирующих факторах.

В Республике Узбекистан наибольшее внимание уделяется современным направлениям защиты информации, требующим научного и практического применения фундаментальных наук. В частности, особая значимость придается созданию защищенных систем передачи и обработки информации, базирующейся на достижениях в области криптографии и системы разработки алгоритмов. Наряду с этим выполняется работы, направленные на определение основных задач по проведению на уровне международных стандартов научных исследований по приоритетным направлениям «Прикладная математика и математическое моделирование». Проведение научных исследований на уровне международных стандартов по приоритетным направлениям «Функциональный анализ, алгебра, дифференциальные уравнения, математическая физика, математическое моделирование, вычислительная математика и дискретная математика, теория вероятностей и математическая статистика» является одной из основных задач Института математики им. В.И.Романовского при Академии наук Республики Узбекистан. Для обеспечения ее реализации важное значение имеет разработка алгоритмических и логических методов обработки и защиты экологических данных в системе IoT для реализации алгоритмов

стеганографии, идентификации и распознавания образов на основе граф-схем алгоритмов и систем функций алгебры логики.

